

**XALQARO BAHOLASH DASTURLARI ORQALI O'QISH  
SAVODXONLIGINI RIVOJLANTIRISHNING DIDAKTIK AHAMIYATI**

*Guliston Davlat Universiteti  
Psixologiya va ijtimoiy fanlar fakulteti  
3-bosqich talabasi  
Rajabova Munisa Aminboy qizi*

**Annotatsiya:** Maqolada PIRLS xalqaro baholash dasturida aqliy salohiyati yuqori bo'lgan o'quvchilarning ishtiroki, uning ahamiyati, afzalliliklari, imkoniyatlari haqida, yurtimiz rivojiga ham muhim bir jarayon ekanligi haqida fikr yuritilgan. Xalqaro tadqiqotlarda qatnashish uchun o'qituvchi va o'quvchilarga qo'yiladigan talablar, metodlar, topshiriqlardan namunalar va fikr mulohazalar keltirilgan. Qolaversa, o'quvchi bilan ish olib borganda qanday innovatsion metodlardan foydalanish kerakligi, yakka tartibda yondoshish, ish jarayonini qat'iy reja asosida olib borish, hamda ota-onaning bola tarbiyasidagi mas'uliyati haqida so'z yuritilgan.

**Kalit so'zlar:** Xalqaro baholash dasturi, tadqiqot, PIRLS, boshlang'ich ta'lim, ma'naviyat.

**Аннотация:** В статье обсуждается участие студентов с высоким интеллектуальным потенциалом в международной оценочной программе PIRLS, ее значение, преимущества, возможности, а также то, что это важный процесс для развития нашей страны. Представлены требования к преподавателям и студентам для участия в международных исследованиях, методы, примеры задач и мнения. Кроме того, обсуждалось, какие инновационные методы следует использовать при работе с учеником, как подходить индивидуально, как вести рабочий процесс по строгому плану, а также ответственность родителей в воспитании ребенка.

**Ключевые слова:** Международная программа оценки, исследования, PIRLS, начальное образование, духовность, педагог, pedagog.

**Abstract:** In the article, the participation of students with high intellectual potential in the PIRLS international evaluation program, its importance, advantages, opportunities, and the fact that it is an important process for the development of our country are discussed. Requirements for teachers and students to participate in international studies, methods, examples of tasks and opinions are presented. In addition, it was discussed what innovative methods should be used when working with the student, how to approach individually, how to conduct the work process based on a strict plan, and the responsibility of parents in raising a child.

**Key words:** International assessment program, research, PIRLS, primary education, spirituality, pedagogue,

Hozirgi davrda sodir bo‘layotgan ilmiy, innovatsion siyosiy va dunyoviy jarayonlarda ta’lim va tarbiya tizimi ham jadal rivojlanib bormoqda. Ta’lim jarayonidagi islohotlar o‘sib kelayotgan yosh avlodni jismoniy va ma’naviy sog‘lom o‘sishi uchun zamin yaratish bilan bir qatorda ularning eng zamonaviy intellektual bilimlarga ega bo‘lgan, XXI asr talablariga to‘liq javob bera oladigan barkamol avlodni voyaga yetishi uchun zarur barcha imkoniyatlar, sharoitlar yaratib berilmoqda. Shu boisdan xalqaro talablar asosida o‘quv dasturlarini takomillashtirish va darsliklarning yangi avlodini yaratish, ta’lim mazmunini tubdanisloq qilish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning Oliy Majlisga murojaatnomasida davlat va jamiyat ahamiyatiga molik dolzarb masalalar qatorida ta’lim sifatini oshirishga, “2021-yildagi xalqaro baholash jarayonlariga munosib tayyorgarlik ko‘rish” masalasiga alohida e’tibor qaratildi.

Xalq ta’limi tizimida o‘quvchilarning bilimini baholash hamda ta’lim sifatini oshirish uchun xalqaro baholash dasturlari (PISA, PIRLS, TIMSS, EGMA va EGRA)da O‘zbekistonning doimiy ishtirokini ta’minlash rejalashtirilgan. Bu imkoniyatlar nafaqat sog‘lom, yetuk va aqliy salohiyati yuqori bo‘lgan kelajak avlodni tarbiyalabgina qolmay, balki Yurtimiz ravnaqiga, siyosiy, iqtisodiy va ma’naviy o‘sishiga zamin yaratiladi. Ta’lim sohasidagi rejalashtirilgan tadqiqotni samarali amalga oshirishda eng katta mas’uliyat boshlang‘ich sinf o‘qituvchi zimmasidadir. Hech kimga sir emaski, boshlang‘ich sinf matematika darslarida geometrik bilimlarga yuzaki qaraladi. Shu sababdan o‘quvchi 4 – sinfga kelib, darslikda berilgan geometrik mazmundagi topshiriqlar ular uchun murakkab holatda bo’ladi. DTSda har bir sinflar kesimida o‘quvchilarning egallashi lozim bo‘lgan talablar belgilab berilgan bo’lsada, amaliyotda bu ko’rsatkich qoniqarli darajada emas.

Respublikamizda amalga oshirilayotgan bu kabi islohotlarning natijasi ulkan iqtisodiy o’sish ko’rsatkichlariga erishishga olib keladi va bu holat malakali kadrlar va yetuk mutaxassilarga bo‘lgan ehtiyojning yanada oshib borishiga turtki bo‘layotganini guvohi bo‘lyapmiz.

Ta’kidlash lozimki, o‘quvchilarning bilim va malakasini umumiy ravishda tahlil qilish mamlakatdagi ta’lim sifati darajasini belgilaydi. Shu maqsadda o‘quv yili davomida har bir ta’lim muassasasida ichki va tashqi monitoring o’tkazib boriladi. Uning natijasiga ko’ra, eng namunali maktablar ketma-ketligi, o‘qituvchilar salohiyati va o‘quvchilarning o’zlashtirish darajasi aniqlanadi. Bu jarayon ta’lim taraqqiyotini belgilovchi muhim mezon bo’lgani uchun Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi tashabbusi bilan umumiy o’rta ta’lim maktabi o‘quvchilari bilimini baholash bo'yicha xalqaro dasturlarni amaliyotga joriy etish maqsadida ilk qadamlar tashlandi. Ya’ni, o‘quvchilar bilimini xalqaro talablarga yetkazish, unga mosligini o’rganib borish maqsadida xalqaro baholash dasturlarini keng qo’llash rejalashtirilmoqda. Bunday talabning qondirilishi, o’z navbatida, o‘quvchilar o’rtasida kitobxonlik va darslarga

qiziqish xususiyatini oshirish va o'qituvchilarning har tomonlama ta'lif tarbiyaga e'tiborini kuchaytirishning zamonaviy ijtimoiy innovatsiyalar orqali amalgalashga ehtiyojini vujudga keltirmoqda.

Xususan, dunyoda ta'lif sifati, saviyasi va darajasini aniqlab beruvchi PISA (O'quvchilarni ta'limdagi yutuqlarini baholash xalqaro dasturi), TIMSS (Maktabda matematika va aniq fanlar sifatini tadqiq qiluvchi xalqaro monitoring), PIRLS (matnni o'qish va tushunish sifatini aniqlash xalqaro tadqiqoti), ISSS (fuqarolik ta'lifi sifatini aniqlash xalqaro tadqiqoti), TALIS (o'qituvchilar korpusi sifatini xalqaro taqqoslash tadqiqoti), ICILS (kompyuter va information savodxonlikni aniqlash xalqaro tadqiqoti) mavjud bo'lib, ular rivojlangan davlatlardagi ta'lif sifatini yanada oshirishdagi mezon sifatida qo'llanilib kelinmoqda. PIRLS (Progress in International Reading and Literacy Study) tadqiqotida 50 dan ortiq davlatlar ishtirok etib kelmoqda.

Mazkur xalqaro tadqiqotning maqsadi turli xil ta'lif tizimidan iborat bo'lgan davlatlardagi boshlang'ich maktab o'quvchilarining matnni o'qish va qabul qilish bo'yicha tayyorgarligi hamda o'quvchilarning har xil yutuqlarga erishishga sabab bo'luvchi ta'lif tizimidagi o'ziga xos xususiyatlarni aniqlash va baholashdan iborat. Mazkur tadqiqot o'quv yutuqlarini baholash xalqaro Assosatsiyasi tomonidan tashkil etilgan. Tadqiqotda ishtirok etadigan maktablar ikkita parallel sinfi bo'lgan umumiy maktablar orasidan maxsus metodologiya asosida kompyuter yordamida tasodifiy tanlanadi.

PIRLS tadqiqoti jarayonida ikki turdag'i o'qish baholanadi:

- adabiy o'qish tajribasini egallashga qaratilgan o'qish;
- ma'lumotlarni o'zlashtirish va ulardan foydalanish maqsadiga qaratilgan o'qish.

Tadqiqotning konseptual g'oyalariga asosan badiiy va ilmiy-ommabop matnlarni o'qish darajasini baholashda 4 turdag'i o'qish ko'nikmalarini baholanadi:

- yaqqol ko'rinishda berilgan ma'lumotlarni toppish;
- o'qilgan matn asosida xulosalarni shakllantirish;
- axborotlarni umumlashtirish va interpretatsiya qilish;
- matnning strukturasi, tilga xos xususiyatlarni mazmunini baholash va taxlil qilish.

PIRLS doirasida bajarilgan ishlarni miqdor va sifat ko'rsatkichlari asosida baholash maqsadida quyidagi baholash tizimidan foydalilanadi:

- javobini tanlashga oid topshiriqlar 1 ball bilan;
- voqealarning ketma-ketligiga oid topshiriqlar va qarorlar 1 ball bilan;
- javobi yoziladigan ochiq turdag'i konstruktive xarakterdag'i topshiriqlar qiyinchilik darajasiga ko'ra 1 balldan 3 ballgacha baholanadi. Albatta bunday tadqiqot xalq ta'lifi sohasidagi ishchilar, olimlar, metodistlar, o'qituvchilar, otaonalar va jamoat vakillari uchun katta ahamiyatga egadir.

PIRLS o'qish ta'limi takomillashuv jarayonida dalillarga asoslangan qarorlar qabul qilish imkoniyatini beradi. Davlatlar PIRLS dan quyidagi maqsadlarda foydalanadilar:

- ta'lim tizimi darajasidagi yutuqlarning tendensiyalarini global miqyosda kuzatib borish;
- qayta ko'rib chiqilgan yoki yangi ta'lim siyosatining ta'sirini kuzatib borish;
- jarayonning kuchsiz nuqtalarini belgilash va o'quv islohotini amalga oshirish;
- PIRLS ma'lumotlarini tadqiq va tahlil qilish orqali o'qitish va o'qishni takomillashtirish;
- adolatlilikni kuzatish yoki qo'shimcha sinflarda o'quvchilarni usgbu yo'nalisgdagi bilmlarini baholash kabi tegishli ishlarni olib borish;
- o'qishni va o'qitishni o'rganish.

PIRLS loyihasi Ta'lism yutuqlarini baholash xalqaro assotsiatsiyasi (IEA — International Association for the Evaluation of Educational Achievement) tomonidan yaratilgan. Xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish uchun Chestnut Hill (Massachusetts, AQSh) Boston kolleji mas'ul hisoblanadi. Xalqaro tadqiqot uchun topshiriqlarni tayyorlash Hamburgdagi (Germaniya) ma'lumotlar markazida amalga oshiriladi. Ozbekistonda ushbu tadqiqot O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ta'lism sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi tomonidan O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va mакtab ta'limi vazirligi bilan hamkorlikda amalga oshiriladi. O'quvchi sinov jarayonning faol qatnashuvchisi bo'ladi, matn ustida mushohada yuritishadi va samarali o'qish strategiyalarini ongli ravishda tanlab qo'llashadi. Har bir matn turi odatiy shakl va qoidalarga amal qilgan holda o'quvchiga matnni sharhlashga yordam beradi. Har qanday matn turli shaklga ega bo'lishi mumkin. Bular an'anaviy kitoblar, jurnallar, hujjatlar va gazetalar, shuningdek, raqamli ko'rinishdagi yozma shakllarni ham o'z ichiga oladi.

PIRLS tadqiqotida o'quvchilarning dars vaqtida va maktabdan tashqari vaqtlarida o'qishini ikki turi baholanadi:

1. O'quvchining adabiy tajribasini baholash maqsadida o'qish;
2. Ma'lumotni o'zlashtirish va undan foydalanish maqsadida o'qish. Tadqiqot qoidalariga muvofiq, badiiy va informatsion matnlarni o'qiyotganda o'qish qobiliyatining to'rtta guruhi baholanadi:

- aniq ko'rsatilgan ma'lumotlarni topish;
- xulosalarni shakllantirish;
- ma'lumotlarni talqin va sintez qilish;
- mazmuni, til xususiyatlari va matn tuzilishini tahlil qilish va baholash

Hozirgi vaqtida PIRLS ta'rifiga ko'ra, o'qish savodxonligi jamiyat tomonidan talab qilinadigan va inson tomonidan qadrlanadigan yozma til shakllarini tushunish va

ulardan foydalanish, shuningdek, matnlardan turli shakllarda ma'no hosil qila olish qobiliyati hamdir.

### **Foydalilanilgan adabiyotlar:**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Xalq ta'lmini boshqarish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-538-son Farmoni.2018-yil 5-sentabr.
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi."Xalq ta'limi tizimida ta'lim sifatini baholash sohasidagi tadqiqotlarni tashkil etish chora- tadbirlari to'g'risida"qaror. 2018-yil, 8-dekabr.
3. Ta'lim sifatini baholash bo'yicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish milliy markazi. Xalqaro tadqiqotlarda boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'qish savodxonligini baholash. Boshlang'ich sinf o'qituvchilari, metodistlar va soha mutaxassislari uchun metodik qo'llanma. 'Sharq' nashriyot-matbaa Aksiyadorlik kompaniyasi. Toshkent – 2019
4. A.A.Ismailov va boshqalar .Xalqaro tadqiqotlarda o'quvchilarning matematik savodxonligini baholash (metodik qo'llanma). Ta'lim inspeksiyasi huzuridagi Ta'lim sifatini baholash bo'yicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish milliy markazi. – Toshkent, 2019- yil. "Sharq"-mail: info@xtv.uzedu.uz
5. "Xalqaro tadqiqotlarda ishtirok etish – inson kapitalini rivojlantirish omilidir" mavzusidagi xalqaro vebinar. Sidorova Galina Aleksandrovna, Rossiya ta'lim akademiyasining ta'limni rivojlantirish strategiyasi instituti, ta'lim sifatini baholash markazining katta ilmiy xodimi, pedagogika fanlari nomzodi. e-mail: centeroko@mail.ru Veb-sayt www.centeroko.ru
6. "PIRLS 2021 xalqaro solishtirma tadqiqoti doirasida o'qish savodxonligini shakllantirishning o'ziga xos xususiyatlari" nomli taqdimot. Kuznetsova Marina Ivanovna, Rossiya ta'lim akademiyasi Ta'limni rivojlantirish strategiyalari instituti Boshlang'ich ta'lim markazi yetakchi ilmiy xodimi. e-mail: centeroko@mail.ru Veb-sayt www.centeroko.ru
7. Xalqaro tadqiqotlarda boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'qish savodxonligini baholash (Boshlang'ich sinf o'qituvchilari, metodistlar va soha mutaxassislari uchun metodik qo'llanma). Ta'lim inspeksiyasi huzuridagi Ta'lim sifatini baholash bo'yicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish milliy markazi. Toshkent, 2019-yil. 92 b.